



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI


Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

TAHRIR HAY'ATI:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinnbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinnbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat yergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



MUNDARIJA

"Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir"	6
Qirg'zboyev Abdug'affor Karimjonovich	
Ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari	8
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО	11
Хамдамова Махзунна Турсуновна	
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....	15
Asiljonova Shohsanam Doniyorovna	
Yangi O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar	18
Babayeva D. R.	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o'zaro ta'siri	21
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta'lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....	25
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna	
Nеполные предложения как объект исследования	28
Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Диляноза Бекмуродовна	
Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida	32
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi	
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o'rni.....	36
Raximberganova Munojat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich	
Maktabgacha yoshdag'i bolalarni ijodiy faoliyatga o'rgatishda STEAM ta'lim texnologiyasining ahamiyati	38
Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi	
Kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari	41
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam	
Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....	46
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....	50
Ризаев Азизжон Рахимджанович	
Maktabgacha ta'limga zamonaviy axborot texnologiyalari	54
Marasulova Dono Nigmatullayevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyanuvchilarini ma'naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....	59
Matchanov B. O.	
Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda hayot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	63
Muratova Munavar O'rol qizi	
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....	67
Нажмиддинова Гулноза Одиловна	
Bo'lajak tarbiyachilarining mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....	70
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi	
Методика развития речи дошкольников	74
Очилова Хилола Шералиевна	
Okul öncesi dönemde bulunan çocukların için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....	78
Elem Göktaş	
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника	87
Равшанова Наргиза Норбоевна	
Отешова Гульнур Кабуловна	

Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....	91
Хайдаров Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi	95
Radjapova Zuxra Tirkashevna	
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей	100
Садикова Шоиста, Тохирова Шохсанам	
Maktabgacha ta'limda yuksalish	104
Shirbacheyeva Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar	106
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna	
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher	109
Tokhirova Shokhsanam	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari	114
Xo'jamatova X. M.	
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarmi milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarning o'rni	119
Yakubova Zilola Zikirovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....	122
Mirkasimova Zilola Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash	124
Musratova Zilola Ulugbekovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning shaxslararo munosabati	128
Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdong Shohasan qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari	132
Teshabayeva Zamira Sobirovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati	135
Maxmudova Dilorom Axmadovna	
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'naliishlari.....	137
Nabiiev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....	140
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....	143
Khalilova Dilnoza Furkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	146
Jumanova Fatima Uralovna	
Talabalarning kasbiy kompetentliligin integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....	149
Kamalova Gavhar Akbarovna	
Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....	152
Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna	
Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....	156
Ne'matova G. A.	
Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari	160
Norboyeva Dilafruz Jumakulovna	
Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....	163
Yuldasheva Dilnoza	
Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....	166
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Raxmatova Saodat Amrakulovna	
Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhnii idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari	172
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	



Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....	176
Тургунов Абдурашид Абдуманнобович	
Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....	182
Asrarhanova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi	
Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida	186
Jalilova Saboxat Xalilovna	
O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili	191
Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna	
Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli	196
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....	199
Qurbanboyev Azimbek Nazirboy o'g'li	
Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	202
Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna	
Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	205
Nurmatov Nurhayot Nurziytot o'g'li	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning	
pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	209
Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna	
Социальнопедагогическая компетентность воспитателя ДОО.....	212
Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.	
Inklyuziv ta'limgarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....	215
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	

KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAROIT VA IMKONIYATLARI

Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Pedagogika kafedrasи dotsenti,(PhD)

Odiljonova Shoxsanam

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada olyi ta'limga muassasalarida kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limi tashkil etish, ularning mustaqil fikrlashlarini shakllantirish, talabalarda o'quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompetenesiyalarini tashkil topishi, rivojlanishi, talabalarning auditoriyadan tashqari ishlardagi faoliyklarini oshirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kredit, ta'limga, mustaqil ta'limga, sifat, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, fikr, rivojlanish.

Abstract: In this article, the organization of independent education of students in the credit-module system in higher education institutions, the formation of their independent thinking, the organization and development of students' knowledge, skills, qualifications and competencies necessary for independent performance of educational work, issues of increasing students' activity in activities outside the auditorium are highlighted.

Key words: credit, education, independent education, quality, knowledge, skills, competence, opinion, development.

Аннотация: В данной статье рассматривается организация самостоятельного обучения студентов по кредитно-модульной системе в высших учебных заведениях, формирование их самостоятельного мышления, организация и развитие у студентов знаний, умений, квалификации и компетенций, необходимых для самостоятельного выполнения учебной работы, освещены вопросы повышения активности студентов в деятельности вне аудитории.

Ключевые слова: кредит, образование, самостоятельное образование, качество, знания, умения, компетентность, компетентность, мнение, развитие.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasi"da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan olyi ta'limga milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi-mamlakatlari diplomlarini o'zaro tan olishga, o'qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko'maklashuvchi 1999-yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo'shilish masalasini ko'rib chiqish belgilab qo'yilgan.

Mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotda tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, ta'limga sohasidagi islohotlarda "Ta'limga to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi muhim o'rinn tutadi. Har bir mamlakatning rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi mamlakatdagi ta'limga tizimining qay darajada takomillashganiga bog'liq. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha olyi ta'limga muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'limga tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'limga va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariiga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'limga va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan birdir. Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'limga tizimlari, kredit tizimi asosida ta'limga jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'limga sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'limga muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, olyi ta'limga normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-tonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da oliy ta'limni tizimi isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari, zamonaviy bilmiga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish va ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda, ijtimoiy soha hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga strategik masalalar sifatida alohida ahamiyat berilgan. Jumladan, Konsepsiya "mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish" vazifasi belgilangan. Shuningdek, unda ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishslash, malakalarini uzlusiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkinligi ta'kidlangan. Mutaxassis kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonini tashkil qilish muhim o'rinn tutadi. Hozirgi kunda o'quv rejallarda talabalar o'quv yuklamasining hajmi auditoriya (kontaktli) va mustaqil ta'limga nisbatli bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida 40/60 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha ajratilgan. Ta'lim dasturining o'zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masala va muammolari mustaqil ta'lim orqali o'rganilishi lozim. Mustaqil ta'lim talabalar tomonidan u yoki bu fan bo'yicha dastur materiallardan bir qismining mustaqil o'zlashtirilishidir.

Oliy ta'limming o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri mutaxassisni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil ravishda bilimini ko'paytirishga, innovatsion faoliyatini ijodiy shaxsiyatini shakllantirishga yo'naltirishdan iboratdir. Bunday vazifani amalga oshirish uchun tayyor bilimlarni o'qituvchi tomonidan talabaga berishning o'zigma kamlik qiladi. Bunday yo'l talabani bilimlarni o'zlashtirishning passiv iste'molchisiga aylantirib qo'yadi. Vaholanki, bugun bizga bilimlarni o'zlashtirishdagi passiv ta'lim oluvchi emas, balki uning faol ijodkori zarurdir. Natija shunday bo'lishi kerakki, bo'lg'usi mutaxassis har qanday nazariy va amaliy muammoni ifodalay oladigan, uni yechish yo'llarini ilmiy yoki metodik jihatdan tahlil qilishni uddalaydigan eng munosib va muvofiq natijalarni topib, to'g'riligini isbotlab bera oladigan bo'lsin. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'lim mazmuni bilan chambarchas bog'liq. Yangilanishlar talabalar o'qishini tashkil etishning yangi shakli va usullari haqida ham bosh qotirishni talab etadi. Shu ma'noda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish muhim shaklgina emas, balki ta'lim jarayonining asosini tashkil etuvchi muhim qism bo'lishini taqozo etadi. Bularning barchasi ta'lim berishning zamonaviy metodlarini egallashni, talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirishni har bir talabaning imkoniyat va salohiyatini e'tiborga oлган holda, guruh o'qishlaridan individual o'qishga o'tishni ko'zda tutadi. Bu jarayonni shunday tashkil etish lozimki, uning natijasida talabaning mustaqil bilim olishi va bu bilimlarini hayotga tatbiq etishga oid qobiliyati, ko'nikma va malakalarini shakllansin.

Kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ishining asosiy maqsadi – talabalarda o'quv ishlarini mustaqil bajarishda kerak bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va kompenesiyalarni tashkil topishi va rivojlanishidir.

Talabalar mustaqil ishining vazifalari	Kutilayotgan natija
Mustaqil ishlarni bajarish uchun yangi ma'lumot qidirishga kerakli chora-tadbirlarni aniqlash	Mustaqil ishlarni bajarish uchun bir qancha adabiyolarni tahlil qiladi
Informatsion manbalardan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida foydalanish	Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida informatsion manbalarni tahlil va tahrir qiladi
Me'yoriy hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar, o'quv adabiyotlar bilan ishslash	Me'yoriy hujjatlar, ilmiy-metodik materiallar bilan ishslashni o'rganadi. Sohaga oid yangi nashr etilgan ilmiy va o'quv adabiyotlari bilan tanishadi. Talabalarning axborot-kutubxona markaziga a'zolik darajasi oshadi
Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar bazasi bilan ishslash	OTM axborot-kutubxona markazlarida axborot resurslaridan masofadan foydalanadi
Ish rejalarini ekspertizaga tayyorlash, ekspert xulosasiga ko'ra ularni qayta ishslash, ishning tizimli va ijodiy bajarilishi uchun sharoit yaratish	Ish rejalarini ekspertizaga tayyorlaydi, ekspert xulosasiga ko'ra kamchiliklar, xatolar usitda qayta ishlaydi, ishning tizimli, muntazam va belgilangan vaqt me'yoriga binoan bajarishga odatlanadi

Talabalar mustaqil ishi uchun belgilangan vaqt me'yoriga binoan kafedralarda barcha predmetlardan professor-o'qituvchilar tomonida tashkiliy shakllar, mustaqil ish variantlari va mustaqil bajarish topshiriqlari ishlab chiqiladi, ular fakultetning ilmiy-metodik kengashida va kafedra yig'ilishlarida muhokama qilinib, tasdiqlanadi.

Talabalar mustaqil ishini tashkillashtirish uning metodik ta'minlanishining tematikasi va shakllari ro'yxatini tuzish uchun har birining maqsad va vazifalarini ifodalab berish, yo'riqnomalar yoki metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ilmiy adabiyotlarni tanlash degani.

Mustaqil ta'lism – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Mustaqil ta'lism – olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

Mustaqil ish – o'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'larning faol metodi. Mustaqil ish bu qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faoliylik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Ta'bir joiz bo'lsa, bo'lajak mutaxassisning fikrlash tarzini tarbiyalashga qaratilgan barcha harakat-faoliyat ularning asosini tashkil etadi. Talaba mustaqil fikri tug'ilishiga, uning bilish faolligini oshirishga imkon beradigan har qanday mashg'ulot turi mustaqil ishlari bilan chambarchas bog'liqidir.

Mustaqil ta'limgi talabalarga bilim berishda ularni o'z holiga tashlab qo'yib, ularga beriladigan topshiriq va yuklamalarni kamaytirish deb tushunmaslik kerak, balki o'qituvchilar tomonidan muntazam boshqariladigan talabalarning interaktiv mustaqil faoliyatidir. O'quv jarayoni sifatini oshirishda mustaqil ta'larning roli katta. Talaba mustaqil ta'lism uning manfaatini ko'zlab amalga oshirilayotganini tushunishi kerak. Aslida, talabaning mustaqil ishi degan tushuncha uning auditoriya va auditoriyadan tashqarida, o'qituvchi rahbarligi ostida yoki o'qituvchi ishtirokisiz amalga oshiriladigan mustaqil ish majmuuni anglatadi. Mustaqil ish qanday sharoitlarda amalga oshiriladi:

1. Bevosita auditoriyada – ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar yoki laboratoriya ishlari bo'yicha vazifalar berish jarayonida.
2. O'qituvchi bilan dars jadvalidan tashqari paytlardagi bevosita muloqot chog'ida maslahatlar berishda, ijodiy muloqotlar jarayonida, qarzdorlikni yo'qotishda yakka topshiriq bajarishda va boshqalar.
3. Kutubxonada, uyda, talabalar uylarida, kafedralarda talaba tomonidan o'quv yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida.

Bu ish turlari orasidagi chegaralar juda qat'iy bo'lmasdan, bir-biriga osonlikcha o'tib turishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, talabalarning mustaqil ishlari auditoriyada ham, undan tashqarida ham bo'lishi mumkin. Auditoriyadan tashqaridagi mustaqil ishlari asosiy o'r'in tutadi. Demak, mustaqil ish va auditoriya mashg'ulotlari bir-birini to'ldiradi, talabalarning bilim va kasbiy kompetensiyalarini oshiradi.

Talabalarni mustaqil ishslashga qiziqtirish omillari.

Talabalarning faol mustaqil ishlari faqat jiddiy va barqaror qiziqishlar mavjud bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Bundagi eng jiddiy omil – bo'lajak pedagoglarni kelgusi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarligi sanaladi. Talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga imkon beruvchi ichki omillarni ko'rib chiqaylik:

1. Bajarilayotgan ishning foydaliligi. Agar talaba o'z ish natijalarining ma'ruza jarayonida, metodik qo'llanmada, laboratoriya ishida yoki amaliy mashg'ulotlarda, maqolalar tayyorlashda foydalanishi mumkinligini bilsa, uning bajarayotgan ishiga bo'lgan munosabati keskin tarzda yaxshi tomonga o'zgaradi, hamda ish sifati ham ortadi. Shunga ko'ra, talabani ruhan bunday ishga tayyorlash, bajariladigan ishning zarurati ko'rsatib berilishi kerak.
2. Talabaning ijodiy faoliyatdagi ishtiroki. Bu nihoyatda xilma-xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Xususan, kafedralar tomonidan olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlari, badiiy ijod, metodik ishlari va hokazolar.
3. Fan olimpiadalarida, ilmiy-tadqiqot ishlarida, amaliy ishlari tanlovlariida ishtirok etish va boshqalar.
4. Bilimlarni nazorat qilishda qiziqtiruvchi omillardan foydalanish (reyting, testlar, noan'anaviy imtihon shakllari v.b.). Bu omillar tegishli holatlarda musobaqa ruhini vujudga keltiradi. Mana shu holatning o'zi talabada o'z ustida ishslashni, o'zini rivojlantirishga ichki ehtiyojini shakllantiradi va rivojlantiradi.
5. Mustaqil ishlarni tashkil etish mazmuni va shakllariga o'quv jarayonida yetarlicha vaqtning ajratilayotganligi ham talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishiga imkon beradi.

Bugungi kundagi kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'larning nisbati bakalavriat ta'lism yo'naliishlarida 40/60 foiz isbatidan 50/50 foiz nisbatigacha, magistratura mutaxassisliklarida 30/70 foiz nisbatidan 50/50 foiz nisbatigacha mustaqil ishga mo'ljalangan o'quv rejasida mustaqil ishlarni tashkil etish belgilangan. Bundan ko'rinish turibdiki, mustaqil ishlari uchun yetarlicha vaqt ajratilgan. Asosiy gap ana shu vaqtdan samarali va unumli foydalanishda, xolos.

Talabalarning mustaqil ishlari asosida o'quv jarayonini tashkil etishning ikkita asosiy yo'naliishi mavjud:

1. Auditoriya mashg'ulotlarida mustaqil ishlarning rolini oshirish. Buni amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilardan auditoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda talabalarning yuqori darajadagi mustaqilligi va tayyorgarligi sifatini ta'minlaydigan metodika va shakllarni ishlab chiqishni taqozo etadi.
2. Talabalarning auditoriyadan tashqari vaqtarda barcha yo'nalishlar bo'yicha mustaqil ishlardagi faoliyklarini oshirish. Talabalarning auditoriyadan tashqari ishlardagi faoliyklarini oshirishdagi muammolar bir qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bunda mustaqil ishlarni bajarishga ko'pgina talabalarninggina emas, hatto ayrim professor-o'qituvchilarning ham tayyor emasliklarini ko'rish mumkin. Bu ko'pincha kasbiy yoki psixologik yo'nalishda namoyon bo'ladi. Buning yoniga sifatsiz informatsion ta'minotni ham qo'shsa bo'ladi. Ko'p hollarda informatsion ta'minot talab darajasida bo'lmaydi, buning natijasida samaradorlikning pasayib ketishi kuzatiladi. Shuningdek, talabalarda o'ziga bo'lgan ishonchning yo'qligi hamda ularda nutq madaniyatining yaxshi rivojlanmaganligini ham ularning mustaqil ta'limda faol ishtirok etmasliklariga sabab bo'luvchi omillar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdagi asosiy vazifa har qanday shakldagi mashg'ulotlarda intellektual tashabbus va tafakkurni rivojlantirish uchun psixologik didaktik sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishdagi bosh tamoyil talabalarning individual ishlashga o'tishlarini ta'minlash bo'lishi kerak. Bunda ayrim topshiriqlarni formal va passiv bajarishdan uni ongli va faol bajarish sari yo'llash asosiy o'rinni tutishi kerak. Talabalar mustaqil ishlarning maqsadi avval o'quv mazmuni bilan, keyin esa ilmiy axborotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, o'z-o'zini yo'naltirish va rivojlantirish asoslarini, keyinchalik o'z malakasini muntazam oshirib borish ko'nikmasini hosil qilishdir. Bunda hal qiluvchi rolni o'qituvchi bajaradi. U, umuman, talaba bilan emas, balki muayyan shaxs bilan ishlayotganini har doim diqqat markazida bo'lishi lozim. O'z talabasining kuchli va ojiz tomonlarini yaxshi bilishi, individual qobiliyati va qiziqishlarini nazarda tutishi maqsadga muvofiq bo'ladi. O'qituvchining vazifasi talabaning – bo'lajak yuqori malakali mutaxassisning yaxshi tomonlarini ko'rish va ko'paytirishdan iborat. Har qanday fanni o'rganishda talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning o'zaro aloqador uch shakli ko'zga tashlanadi:

1. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar.
2. Auditoridagi mustaqil ishlar. Bu bevosita o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladi.
3. Ijodiy. Ijodiy shakl nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. Jumladan: o'rganilayotgan fanning alohida boblariga oid berilgan mavzu bo'yicha tahliliy ma'lumotlar, ma'ruza va yozma ishlar.

Talabaga mavzu, hatto rahbarni ham tanlash huquqini berish maqsadga muvofiq bo'ladi;

- tanlangan fan bo'yicha illyustrativ materiallarni tayyorlash, bunda mavzu o'qituvchi tomonidan beriladi, uning mazmuni va shakli, ijrosi talaba tomonidan belgilanadi;
- hajmi, murakkabligi, mazmuni talabaning o'zi tomonidan shakllantiriladigan ilmiy krossvordlar tuzish;
- zamonaviy olimning ilmiy monografiyasiga, yozuvchining asariga asosiy g'oya va qoidalarni ajratgan holda, o'z shaxsiy asoslangan bahosi hamda foydalanishga tavsiyasi ko'rsatilgan taqriz yozish;
- turli xarakterdagи uy vazifalarini bajarish. Bunga mashq va masalalarni yechish, matnni tarjima qilish yoki qayta hikoyalash, adabiy yoki ilmiy manbalarni tanlash va o'rganish, turli jadvallarni tuzish, grafik ishlarni bajarish, turli hisob-kitoblarni amalga oshirish v.b. kiradi;
- talabadagi tashabbuskorlik va mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan individual topshiriqlarni bajarish. Alovida topshiriqlarni har bitta talaba yoki talabalarning bir qismi olishi mumkin;
- kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish;
- ilmiy-nazariy yoki ilmiy-amaliy anjumanlar, ko'rik-tanlovlар, olimpiadalarga tayyorgarlik;
- tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy insho yozish.

Talabalar mustaqil ishlariga ijodiy munosabatlari shakllantirish va rivojlantirish uchun har bir bosqichda ishning aniq maqsadi va qo'yilgan vazifalari tushuntirilishi, talabalar tomonidan ana shu maqsad va vazifalarning anglanganligi nazorat qilinishi kerak. Bu ishlar keyinchalik talaba tomonidan vazifalarni mustaqil tarzda qo'ya bilish hamda maqsadlarni tanlash ko'nikma va malakalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Amaliy mashg'ulotlarning teng yarmi, ya'ni bir juftlikning 50 foizi masala va mashqlarni mustaqil bajarishga sarflanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.



XULOSA

Talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning shakl va usullari nihoyatda ko'p. Bularidan qaysi birini tanlash va foydalanish konkret fanga, o'qituvchining maqsadi va vazifalariga, qolaversa, uning tajriba va mahoratiga bog'iqdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. – Toshkent, 2017-yil 7-fevral.
3. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" PF-5847-sonli Farmoni. – Toshkent, 2019-yil 8-oktyabr.
4. Qo'ysinov O., Muslimov N.A.. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – T.: "Fan", 2009. – 92 b.
2. Qo'ysinov O. A., Kasb ta'limi yo'nalishi bakalavr o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'larning ilmiy-metodik asoslari: Dis. ... ped. fan. nom. – T.: TDPU, 2008. – 160 b.
3. Yo'ldashev Sh. I., Talabalarning mustaqil ta'liming zamонави о'кув jarayonida ahamiyati va о'rni // Uslubiy qo'llanma. – T.: O'zMU, 2022. – 41-b.
4. Karimova D. R., Kredit-modul tizimida mustaqil ta'lism // Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: OOO "Complex Print", 2021. 126 bet.
5. Jo'rayevaN. O., Ta'lism jarayonida mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha ayrim ko'rsatmalar//Ta'lism va innovation tadqiqotlar. –Buxoro, 2021.№3. – 172 b.
6. Musaxanova G. M., Mustaqil ta'lism jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. 2020. №6. – 222-224-b.
7. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lism, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi: "Talabalar mustaqil ta'lmini tashkil etish" Metodik qo'llanma. 2023-yil. – 34-b.



Muharrir: Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**